**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

NASIROVA MUXAYYO KIMSANOVNA

KONSEPTOSFERA SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING O‘RNI

10.00.11 – Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

UO‘K:811.512.133’37:008

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

Nasirova Muxayyo Kimsanovna
Konseptosfera shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rni 3

Nasirova Mukhayyo Kimsanovna
The role of the social environment in the formation of the conceptosphere 25

Насирова Мухайё Кимсановна
Роль социальной среды в формировании концептосферы 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 51

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

NASIROVA MUXAYYO KIMSANOVNA

KONSEPTOSFERA SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY MUHITNING O‘RNI

10.00.11 – Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil.4287 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instituti rasmiy-saytida (www.adchti.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rustamov Dilshodbek Abduvaxidovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Saidxonov Ma’mirjon Muhammedovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Qodirova Nargiza Muxtorovna filologiya fanlari falsafa doktori (PhD),dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qo‘qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.32.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” ___ _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: (99874) 223-42-76; faks: (99871) 223-42-76; e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shohko‘chasi, 5-uy. Tel: (99874) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” ___ _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” ___ _____ dagi _____- raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.Dj.Ataboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.A.Abduvaliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida antropotsentrik yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Antropotsentrik g‘oya zamonaviy tilshunoslikning asosini tashkil qiladi. Zero, u til tizimlarining turli tavsifini shunchaki aniqlash bilan hisoblasha olmaydi, balki bunda o‘z diqqatini inson omili masalasiga qaratadi. Kognitiv tilshunoslikda konseptlar til tizimini tavsiflash va uning faoliyatini tahlil qilishda, til egalarining madaniyatini namoyon etishda muhim rol o‘ynaydi.

Dunyo tilshunosligida lingvistik iboralar, madaniy tasavvur, qadriyat va konseptosfera o‘rtasidagi munosabat atroflicha tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot sohasi din, tarix, urf-odat va mifologiya kabi turli jihatlarni tahlil qilishni hamda ularning odamlar dunyoni idrok etishi va talqinini shakllantirishdagi ahamiyatini o‘z ichiga olgan. Bundan tashqari, ushbu aqliy tuzilmalar – konseptosferalarni o‘rganishda madaniy me’yorlar va qadriyatlar inobatga olingan. Zamonaviy amaliy lingvistikada konseptlar va konseptosferalarni avtomatlashtirilgan usullar bilan tahlil qilish, ya’ni korpus lingvistikasi, kompyuter semantikasi va sun’iy intellekt texnologiyalari lingvistik tadqiqotlarning yangi bosqichini belgilab bermoqda. Konseptosfera tarkibini aniqlashda katta hajmdagi matniy ma’lumotlar (korpuslar)dan foydalanish, vektorli semantik modellar (Word2Vec, BERT) orqali konseptlar o‘rtasidagi munosabatlarni vizualizatsiya qilish imkoniyati ushbu yo‘nalishni dolzarb qiladi.

O‘zbek tilshunosligida yangi asrda shakllanayotgan antropotsentrik lingvistik yo‘nalishlarning asosiy vazifasi – lisoniy imkoniyatlarni insonda tahlil qilish. Uning diqqat markazida lisoniy imkoniyatdan amaliy foydalanish samaradorligini ta’minlashning substansial asoslarda hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolari turadi. O‘zbek tilidagi lisoniy hodisalarning nutqiy voqelanishini yangi paradigmalar asosida tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun konsept masalasini turli yondashuvlar asosida tadqiq etish muhimdir. Chunki konseptni o‘rganish zarurati etnosning rivojlanishi bilan insoniyat o‘sishda davom etmoqda va ularning hajmi, tuzilishi, chegaralari, ma’no yo‘nalishi doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Keyingi yillarda fanlar integratsiyasi yangi tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Jumladan, tilshunos va sotsial psixologlar jamiyat a’zolarining so‘zlash madaniyati va taktikasini o‘rganish masalasiga alohida urg‘u berishmoqda. Chunki milliy, madaniy o‘ziga xoslik o‘sha xalqning xulqi, madaniyati va so‘zlashuv jarayonida o‘z aksini topadi. Zero, muayyan millatga mansub har bir shaxs nutqiy jarayonda o‘z xalqi muomala madaniyatiga xos xususiyatdan foydalangan holda ishtirok etadi. Istalgan kishining o‘zi yashab turgan muhitidagi odamlar bilan aloqa-aralashuvi, e’tiqodi, urf-odatlarga rioya etishi, intilishlari uning shaxs sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Bunda til ishtirok etmaydigan yoki vosita vazifasini bajarmaydigan hech bir jihat yo‘q. Shuning uchun ham til va xalq madaniyati, til va jamiyat masalalari har zamonda dolzarb bo‘lib qolaveradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “...ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama

qo‘llab-quvvatlash vazifasi”[1] davr ruhiga mos tadqiqot olib borish hamda turli amaliy tajriba o‘tkazishni talab qiladi. Birinchidan, mustaqillik sharofati bilan jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tilshunosligimiz oldiga bir qator muhim vazifalarni qo‘ydi. Ikkinchidan, o‘zbek tilshunosligining dunyo lingvistikasi bilan integratsiyalashuvi fanning yangi zamonaviy yo‘nalishlarining shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Shuning uchun konseptosfera shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rnini aniqlash, tahlil etish dolzarb masalalardandir.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5847-son, 2019-yil 21- oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6084-son, 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017- yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ–3160-son, 2024-yil 12- yanvardagi “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–19-son, 2025-yil 20-oktabrdagi “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ–308-son Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish”ning ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kognitiv tilshunoslikda “konsept” atamasi S.A.Askoldov, A.Vejbitskaya, R.Langakker, Y.S.Stepanov, R.M.Frumkina, Z.D.Popova, I.A.Sternin, V.A.Maslova, K.Z.Zulpukarov, Z.K.Derbishova[2] kabi

[1] www.http://prezident.uz Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. (Мурожаат санаси 2017-йил 22-декабр)

[2] Дербишова З.К. Ключевые концепты кыргызской лингвокультуры. – Б., 2012. – 176 с.; Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М., 1997. – 260-267 с.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М., 1996. – 416 с.; Лангаккер Р.У. Когнитивная грамматика – М., 1992. – 88 с.; Степанов Ю.С. Концепт. //Степанов Ю.С. Констант: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.:Школа “Языки русской культуры”, 1997. – С. 40-46. – 824 с. Фрумкина Р.М. Концептуальный анализ с точки зрения лингвиста и психолога // Научно-техническая информация. – 1992. Сер. 2. – №3. 3-9 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999. – 211 с.; Стернин И.А. Когнитивная лингвистика.Изд-во АСТ, Восток-Запад, 2007 . – С.87. – 320 с.; Маслов Ю.С. Избранные труды. Аспектология. Общее языкознание. – М.: Языки славянской культуры, 2004. — 848 с.; Зулпукаров К. З. Падежная грамматика: теория и прагматика. – Санкт-Петербург,1994. – 317 с.

olimlar tomonidan uzoq vaqt davomida qo‘llanilgan. Tilshunoslikning predmet sohasini kengaytirish orqali konsept 80-yillarda to‘laqonli atamaga aylandi.

“Tushuncha” va “konsept” terminlari V.N.Teliya, V.V.Kolesov, E.S.Kubryakova, V.I.Karasik, S.G.Vorkachev[3] kabi rus olimlari ishlarida ham ta’riflangan. Shuningdek, R.Langakker, Dj.Lakoff va M.Djonson[4] konseptni mental reprezentativlik, I.Zalt, A.Koff, K.Pikok mantiqiy semantikaning mavhum birligi, R.Brendom, M.Dammett fikrlaydigan shaxsning kuchi sifatida tushunishgan.

“Konsept” ta’rifiga nemis olim va faylasuflarining bir nechta yondashuvlari mavjud. Buyuk nemis faylasufi A. Shopengauer konsept (concept)ni obyektlarni intuitiv idrok etishimiz natijasida yaratilgan mavhumlik sifatida aniqladi[5]. E.Kant konseptni yaratish uchun uchta xarakterli shartni: taqqoslash, fikrlash, mavhumlikni ajratib ko‘rsatdi[6]. Atoqli nemis faylasufi G.Frege ham konseptni tushunish masalalari bilan shug‘ullangan. G.Frege birinchilardan bo‘lib konsept – ma’no ekanligini aytdi. Stiven Lorens va Erik Margolisning so‘zlariga ko‘ra, konseptlar fikrlash nazariyalaridagi eng muhim tuzilmalardir[7]. M.Xaydegger shuningdek, konsept ma’lum bir etno-madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi semantik shakllanishning bir turi ekanligini ta’kidlaydi[8].

O‘zbek tilshunosligida bu boradagi tadqiqotlar A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, Sh.S.Safarov, N.Nurmonov, N.Mahmudov, M.R.Galiyeva, A.E.Mamatov, M.N.Xolbekov, M.I.Rasulova, O‘.Q.Yusupov, A.A.Qambarov, S.R.Akbarova, Q.N.Nazarov, M.M.Rahmatova, N.R.Umarova, D.Baxronova[9] izlanishlarida muayyan darajada o‘z aksini topgan. Ammo konseptosfera shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rni masalasi monografik planda tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan Oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot Andijon davlat universitetining “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari” mavzusidagi tadqiqot rejasi asosida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi konseptosfera shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rnini aniqlash, o‘rganish va amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

---

[3] Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М.: Наука, 1986. – С.82-83; Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., и др. Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996.

[4] Лангаккер Р.В. Модель, основанная на языковом употреблении // Вестник Московского университета. Сер. 9: Филология. 1997. N4: с. 159-174; N 6: с. 101-123. (Langacker R. Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. -Berlin-N.Y., 1991.); Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980; London,2003. Рус. пер.: Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. М., 2004.

[5] Шопенгауэр А. Мир как воля и представление / А. Шопенгауер. - М.: Наука, 1993. - Т. 1. - 672 с. С.-14.

[6] Кант И. Критика чистого разума / пер. с нем. Н. О. Лосского // Кант И. Сочинения: в 8 т. - М.: Чоро, 1994. - Т. 3.-959 с. – С. 314.

[7] Laurence S. and Margolis E. Concepts and Cognitive Science

[8] Хайдеггер М. Время и бытие: Статьи и выступления / М. Хайдеггер. - М.: Республика, 1993. - 447 с.

[9] Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилтган илмий -амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219; Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол.фан. док-ри дисс... – Фарғона, 2021. – 269 б.; Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера // Хорижий филология №3, 2019. – Б. 62-68.

Tadqiqotning vazifalari:

konsept va konseptosfera bo‘yicha mahalliy va xorijiy tilshunoslikdagi tadqiqotlarni o‘rganish, umumlashtirish hamda ularni amaliy va kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish;

ijtimoiy muhit kategoriyasi va unda tilshunoslikning ahamiyatini yoritish hamda bu orqali konseptosferalarning shakllanishini izohlash hamda ijtimoiy muhit ta’sirini kompyuter sotsiolingvistikasi usullari orqali miqdoriy jihatdan asoslash;

konseptosferaning mentalitet va dunyoning kognitiv manzarasi bilan bog‘liqligini aniqlash;

konseptosferaning tilning semantik maydoni hamda dunyoning lingvistik manzarasidagi o‘rnini yoritish va vektorli semantik maydonlar hamda korpus tahlili vositalari orqali tasdiqlash;

o‘zbek va nemis millatida oila, ta’lim, mahalla, ish joyi muhiti bilan bog‘liq konseptosferalar shakllanishini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ijtimoiy muhitda qo‘llanadigan faol lug‘aviy konsept hamda konseptosferalar tanlandi.

Tadqiqotning predmetini ijtimoiy muhitning ta’sirida yaratiladigan konseptosferalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kognitiv, sotsiolingvistik, tasniflash, qiyoslash, kontekstual, leksikografik, lingvokulturologik hamda amaliy lingvistika tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tildan foydalanishga ta’sir o‘tkazuvchi ijtimoiy ierarxiyani shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan jamiyat ichida mavjud bo‘lgan kuch va maqom tizimlari – ijtimoiy muhitning oila, ta’lim, ish joyi, atrof-muhit konseptosferasi strukturasiga ta’siri o‘zbek va nemis lingvomadaniyati misolida ochib berilgan;

o‘zbek lingvomadaniyatida “oila”, “ta’lim”, “ish joyi”,“mahalla” kabi konseptosferalar tarkibiga kiruvchi konseptlar dalillangan;

nemis lingvomadaniyatida “ijtimoiy muhit”, “ish joyi”, “ta’lim”, “oila”, “atrof-muhit” kabi konseptosferalarning tarkibiga kiruvchi konseptlar dalillangan; nemis tilidagi “Bildung” konseptosferasining ma’naviy-falsafiy yo‘nalishdan kasbiy-amaliy yo‘nalishga semantik siljishi DWDS milliy raqamli korpusi asosida diaxronik tahlil orqali aniqlangan;

lingvomadaniy yondashuv turli milliy dunyoqarashlardagi ekvivalent konseptlar va konseptosferalarning qiyosiy tahlili uchun zaruriy shart ekanligi: nemislarda oila, ta’lim, ish joyi bilan bog‘liq ijtimoiy konseptosferalar; o‘zbeklarda esa oila, ta’lim, ish joyi bilan bog‘liq konseptosferalar bilan bir qatorda mahalla konseptosferasi ham mavjudligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ma’lum bir jamiyat ichidagi boshqa tushunchalarga qaraganda kamroq ishlatiladigan va ma’lum kontekstlarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan asosiy yoki markaziy bo‘lmagan tushunchalarga ishora qiladigan konseptosferaning periferiyasi ma’lum madaniyat yoki jamiyat ichidagi hayot va tafakkurning o‘ziga xos tomonlarini aks ettirib madaniyat va tilni tushunish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi ochib berilgan;

tilning ijtimoiy jihatlari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasida yuzaga keladigan omillar (1); tabiiy hodisalar va ijtimoiy hayotning diniy va dunyoviy mafkuralari tomonidan talqin qilinishi (2); ta'lim sistemasi (3); tillarning o'zaro ta'siri (4); mafkuraviy tarkib (5); ijtimoiy ahamiyatga ega ilmiy va kognitiv omillar (6); estetik mulohazalar (7); ijtimoiy-kasbiy ta'sirlar (8); ijtimoiy hodisalarni axloqiy tushunishni (9) qamrab olishi o'zbek va nemis lingvomadaniyati misolida asoslangan;

nutq faoliyati jarayonida ijtimoiy omil tuzilishining quyidagicha: 1) harakat subyekti; 2) ta'sir obyekti; 3) harakat subyekti tegishli bo'lgan muhit; 4) harakat obyekti tegishli bo'lgan muhit; 5) subyektning harakat vositalari; 6) subyekt harakatining maqsad va vazifalari asosiy elementlari aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'rganilgan materiallarning o'zbek hamda nemis tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar, ilmiy tahlil, nazariy qarash va usullar konsept hamda konseptosfera bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, uning materiallaridan maxsus kurslarni ishlab chiqishda, tashkil etishda, dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni tayyorlash, maxsus lug'atlarni tuzishda, kognitologiya, lingvokulturologiya bo'yicha ma'ruzalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Konseptosfera shakllanishida ijtimoiy muhitning psixologik, kognitologik va lingvokulturologik jihatdan o'rganilishi bo'yicha olingan ilmiy xulosa va natijalar asosida:

nutq faoliyati jarayonida ijtimoiy omil tuzilishining harakat subyekti, ta'sir obyekti, harakat subyekti tegishli bo'lgan muhit, harakat obyekti tegishli bo'lgan muhit, subyektning harakat vositalari, subyekt harakatining maqsad va vazifalari asosiy elementlariga doir qarashlardan ixtisoslashgan atamalar tavsifiga oid ilmiy xulosa va natijalardan Andijon davlat universitetida 2022-2023-yillarda bajarilgan "№ IL-402104213. O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada ixtisoslashgan atamalar tavsifida foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2024-yil 8-yanvardagi №39-01-26-son ma'lumotnomasi). Natijada, konsept va diskurs tavsifida qo'llanuvchi ayrim birliklarning o'ziga xosliklari ochib berilgan;

tilning ijtimoiy jihatlari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasida yuzaga keladigan omillar, tabiiy hodisalar va ijtimoiy hayotning diniy va dunyoviy mafkuralari tomonidan talqin qilinishi, ta'lim tizimi, tillarning o'zaro ta'siri, ijtimoiy ahamiyatga ega ilmiy va kognitiv omillar, ijtimoiy-kasbiy ta'sirlar, ijtimoiy hodisalarni axloqiy tushunishni qamrab olishning lingvomadaniyatga ta'siri to'g'risidagi qarashlar shakllanishiga oid ilmiy xulosa va natijalardan Andijon davlat universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan "OT-F1-18. Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlari va metodologiyasini ishlab chiqish" davlat fundamental-tadqiqot doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat

universitetining 2024-yil 8-apreldagi №39-01-27-son ma’lumotnomasi). Natijada, faol diskursda lisoniy madaniyatni ta’minlashga oid metodologiya ijtimoiy ta’sirga doir yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

konseptosfera shakllanishida ijtimoiy muhit, milliy mentalitetimizni saqlagan holda oila, ta’lim, ish joyi va mahalla muhitiga doir konseptosferalardan foydalanish, shuningdek, lingvomadaniy aloqalarning kognitiv xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, jamiyatda ijtimoiy muhit potensialini oshirishga amaliy ta’sirini, kognitiv hamda lingvomadaniy tadqiqiga, ilmiy-uslubiy-amaliy asos bo‘lishini jamiyatdagi tur va sektorlar faoliyati jarayoniga oid xulosa va materiallaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” radioeshittirishlar ssenariysini tayyorlashda (2023-2025-yillar davomida) foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 21-iyuldagi 05-09-1204-son ma’lumotnomasi). Natijada, radiotinglovchilar tadqiqot mavzusi orqali til va nutq hodisalarining shakllanishi va qo‘llanilishida oila, ta’lim, ish joyi, mahalla muhiti kabi ijtimoiy muhit kategoriyasining ahamiyati, tilning semantik maydoni hamda dunyoning lingvistik manzarasi to‘g‘risida foydali ma’lumotlar bilan tanishtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 3 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan hamda profillarda havolaga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, ulardan 2 tasi respublika ilmiy jurnallarida va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad-vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Kognitiv lingvistikada konsept va konseptosfera hodisasi: nazariy va kompyuter lingvistik yondashuvlar”** deb nomlanuvchi I bobida kognitiv fan, kognitiv tilshunoslik mohiyati, “konsept” tushunchasi, uning ta’rifi borasidagi mulohazalar, konseptosferaning kognitiv tuzilma ekanligi, bu hodisalarning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi masalasi tahlil qilingan hamda ushbu masalalarga munosabat bildirilgan. Bobning **“Konsept tushunchasi**

va uning ta’rifi: kognitiv hamda kompyuter lingvistik yondashuvlar” deb ataluvchi birinchi bo‘limida mazkur terminga berilgan lingvistik ta’riflar tahlilga tortilgan, o‘rganilgan, umumlashtirilgan va munosabat bildirilgan.

Kognitiv tilshunoslik tilni kodlash va o‘zgartirishda rol o‘ynaydigan kognitiv mexanizm sifatida o‘rganiladi. Kognitiv tilshunoslikning maqsadi– odamlar o‘z fikrlarini tartibga solish va atrofdagi dunyoni tushunish uchun tildan qanday foydalanishlarini tushunishga qaratilgan til tahlili. Tilga kognitiv yondashuv juda muhim bo‘lib, u nafaqat ma’lumotni yetkazadi, balki shaxsning bilim jarayonlari va fikrlash tarzini ham aks ettiradi.

Konsept zamonaviy tilshunoslikda asosiy o‘rin tutadi. U inson psixikasida mavjud bo‘lgan madaniyat shaklini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, shaxsning aqliy dunyosida va lingvistik ongida milliy sayqallangan holda namoyon bo‘ladi[10].

Kompyuter lingvistikasida konseptni tadqiq etishning asosiy to‘rtta usuli mavjud:

1. Korpus tahlili (Corpus Analysis). Katta hajmdagi matnlardan (korpuslardan) konseptni ifodalovchi leksik birliklarni avtomatik aniqlash usuli. Konkordans dasturlari (AntConc, Sketch Engine) yordamida muayyan konsept atrofidagi kollokatlar, ya’ni tez-tez birgalikda qo‘llaniladigan so‘zlar aniqlanadi[11]. Masalan, o‘zbek tilida “mahalla” konseptini o‘rganishda milliy matbuot korpusidagi “birdamlik”, “o‘zaro yordam”, “qo‘shnichilik” kabi kollokatlarning chastotasi statistik asosda o‘lchanadi.

2. Distributiv semantika (Distributional Semantics). Bir xil kontekstda qo‘llaniladigan so‘zlarni statistik usulda guruhlash orqali konseptosfera yadro va periferiyasini aniqlash usuli. Bu yondashuvda “ma’no – bu tarqalish” (meaning is distribution) tamoyiliga asoslaniladi[12]. Bir xil kontekstda paydo bo‘ladigan so‘zlar semantik jihatdan yaqin deb hisoblanadi. Ushbu usul konseptlar o‘rtasidagi yashirin munosabatlarni – an’anaviy leksikografik tahlil orqali ko‘rinmas munosabatlarni ochib berishga imkon beradi.

3. Tematik modellashtirish (Topic Modeling / LDA). Katta hajmdagi matnlar to‘plamidan yashirin mavzu tuzilmalarini statistik usulda aniqlash usuli[13]. LDA (Latent Dirichlet Allocation) algoritmi yordamida, masalan, kelajakda yaratiladigan o‘zbek matbuoti korpusidan “ta’lim” konseptosferasiga xos mavzular (ilm, ustoz-shogird munosabati, dargoh, bilim) avtomatik ravishda ajratib olinadi. Bu an’anaviy tadqiqotda intuitiv belgilangan konseptosfera tarkibini miqdoriy ma’lumotlar bilan tasdiqlash imkonini beradi.

4. Leksik-semantik tarmoqlar (Lexical-Semantic Networks). Konseptlarni tugunlar (node), ularning o‘zaro munosabatlarini esa qirralar (edge) sifatida

---

[10] Карапетян Е. Лингвоконцепт в языковой среде как способ постижения // Научный журнал КубГАУ, №98(04), 2014. – С. 98-102.

[11] Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 196 p.; Xarshiladze M., Rapp R. Corpus-based Concept Extraction for Multilingual Knowledge Bases // Proceedings of LREC. – 2020. – P. 45-52.

[12] Turney P.D., Pantel P. From Frequency to Meaning: Vector Space Models of Semantics // Journal of Artificial Intelligence Research. – 2010. – Vol. 37. – P. 141-188.

[13] Blei D.M., Ng A.Y., Jordan M.I. Latent Dirichlet Allocation // Journal of Machine Learning Research. – 2003. – Vol. 3. – P. 993 – 1022.

tasvirlaydigan grafik modellar. WordNet (ingliz tili), GermaNet (nemis tili) kabi leksik-semantik ma'lumotlar bazalari konseptosfera tuzilmasini raqamli shaklda ifodalashning amaliy namunasi hisoblanadi. Nemis tili uchun GermaNet tarmog'ida, masalan, "Bildung" (ta'lim) konsepti giperonimlari (Zustand), giponimlari (Ausbildung, Erziehung, Schulbildung) va sinonim qatorlari bilan ifodalangan[14]. O'zbek tili uchun bunday resurslarni yaratish – zamonaviy o'zbek kompyuter lingvistikasining dolzarb vazifasidir.

Demak, "konsept" tushunchasi nafaqat kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning, balki zamonaviy amaliy va kompyuter lingvistikasining ham markaziy tadqiqot obyektidir. An'anaviy ta'riflar konseptni mental hodisa sifatida tavsiflasa, kompyuter lingvistikasi uni raqamli, o'lchov mumkin bo'lgan birlik sifatida modellashtiradi. Ikkala yondashuv o'zaro to'ldiruvchi bo'lib, konseptosferani ham mazmunan, ham miqdoriy jihatdan tahlil qilishga imkon beradi.

Bobning ikkinchi fasli **"Konseptosfera kognitiv tuzilma sifatida"** deb nomlanadi. Kognitiv tilshunoslikda konseptosfera tashqi dunyo haqidagi keng ko'lamli bilimlarni qamrab oluvchi eng muhim tushunchadir. Uni rasm, diagramma, belgi, tushuncha, ramka (o'zining axborot tuzilishi bilan), ssenariy, geshtalt (tashqi dunyo tasvirlari majmuasi), taklif yoki bilim qanday tashkil etilganligi to'g'risida ma'lumot yetkazuvchi aqliy vosita deb ta'riflash mumkin. Aslida bu atrofdagi dunyo aqliy modelining to'liqligini anglatadi[15].

Konseptosfera atamasi fanga birinchi marta akademik D.S.Lixachev tomonidan kiritilgan. Olimning ta'rifiga ko'ra, konseptosfera sohasi millat tushunchalari to'plamidir, u ona tilida so'zlashuvchilarning barcha potensiallari orqali shakllanadi. Millat konsepsiyasining xilma-xilligi, ko'pligi va o'ziga xosligini madaniy yutuqlar, og'zaki va yozma adabiyot, ilmiy yutuqlar, san'atning turli shakllari, tarixiy rivojlanish va diniy e'tiqodlar bilan izohlash mumkin[16]. Konsept ham, konseptosfera ham kuzatilmaydigan aqliy hodisadir.

Konseptosfera sohasining haqiqati odamda noverbal fikrlashning mavjudligi bilan belgilanadi, uning mavjudligi bir qator ilmiy tajribalar bilan tasdiqlangan. Shunga ko'ra, konseptosfera – mental, aqliy, kuzatilmaydigan, ammo obyektiv hodisadir[17].

"Konseptosfera" tushunchasi tadqiqot jihatiga bog'liq bo'lgan turli xil guruhlarni o'z ichiga qamrab oladi: 1) etik-estetik tomoni muallifning konsepsiyasi hamda badiiy-ijodiy faoliyatini qamrab oladigan badiiy konseptosferani shakllantiradi; 2) gnoseologik jihat tilning konseptosferasida aks etadi, bu esa tilning semantik tuzilishida namoyon bo'ladigan konsept to'plami sifatida tushuniladi; 3)

[14] Miller G.A. WordNet: A Lexical Database for English // Communications of the ACM. – 1995. – Vol. 38, № 11. – P. 39-41; Hamp G., Feldweg H. GermaNet — a Lexical-Semantic Net for German // Proceedings of ACL workshop. – Madrid, 1997. – P. 9-15; Kuriyozov E. et al. Building Open Information Extraction Systems for the Uzbek Language // Proceedings of LREC. – 2020. – P. 2145-2152.

[15] Тентимишова А.К. Концепт и концептосфера в исследованиях ученых-лингвистов // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 17. – С. 226–230. – URL: http://e-koncept.ru/2016/46223.htm.

[16] Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Изв. РАН – СЛЯ. – 1993, №1. – С. 3-9. – 165 с.

[17] Попова З.Д. Когнитивная лингвистика: монография [Текст] / З.Д.Попова, И.А.Стернин. – М.: АСТ, Восток-Запад, 2007. – С. 26. – 320 с.

ontologik xususiyat ona tilida so‘zlashuvchilar ongida tuzilgan va ma’lum bir millat madaniyatini, shu jumladan, uning axloqiy kodekslarini, urf-odatlarini, diniy bag‘rikengligini, ma’naviy talablarini, shuningdek haqiqat, hayot, o‘lim, moddiy va ma’naviy qadriyatlar tushunchalarini aks ettiradigan milliy konseptosferalarda mavjud bo‘ladi; 4) lingvistik ijtimoiy-psixologik jihat etnik guruhning konseptual sohasi asosida shakllanadigan, ijtimoiy mavqega ta’sir ko‘rsatadigan shaxsning konseptual sohasini o‘rganadi; 5) konseptosferalar siyosiy, kasbiy, gender, yoshga doir kabi ijtimoiy jihatdan ham farqlanishi mumkin [18].

“Konseptosfera” tushunchasining turli ta’riflarini tahlil etish orqali uning “dunyo manzarasi” bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Konseptlarning to‘plami tilning konseptosferasini tashkil qiladi. Demak, konseptlar majmui konseptosferani tashkil qiladi. Aksariyat tadqiqotchilar konseptosfera har bir millatning madaniy merosi bilan bevosita bog‘liq deb hisoblashadi. Agar xalq boy madaniy, adabiy, ilmiy an’analarga ega bo‘lsa, uning konseptosferasi ham albatta boy bo‘ladi. Albatta, butun konseptosferani o‘rganish individual konseptlarni o‘rganish uchun muhimdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Dunyoning kognitiv va lingvistik manzarasida konseptosferaning o‘rni: ijtimoiy muhit va kompyuter lingvistik tahlil asoslari”** deb nomlanib, unda ijtimoiy muhit kategoriyasi, unda tilshunoslikning ahamiyati, konseptosferaning mentalitet va dunyoning kognitiv manzarasi (DKM) bilan bog‘liqligi, tilning semantik maydoni hamda dunyoning lingvistik manzarasi (DLM)da konseptosferaning o‘rni masalalari yoritilgan. **“Ijtimoiy muhit kategoriyasi, tilshunoslik va kompyuter lingvistik tahlil imkoniyatlari”** deb nomlangan birinchi bo‘limida itimoiy muhit, uning tarkibiy qismlari hamda tilshunoslikdagi ahamiyati batafsil yoritilgan. Tadqiqotchilar jamiyat muhitining turli ajralmas komponentlarini, jumladan, alohida subyektlar sifatida o‘rganiladigan ijtimoiy, tabiiy, sun’iy, geografik, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy, ilmiy va siyosiy muhitlarni aniqladilar. Biroq, ijtimoiy muhit birinchi navbatda jamiyat muhiti sifatida belgilanadi.

Ijtimoiy muhit inson ongini qamrab oladi va atrofimizdagi odamlar, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy normalar, protseduralar, faoliyat va aloqalar kabi turli xil ijtimoiy omillarning jamoaviy ta’siri ostida shakllanadi. Bu ijtimoiy muhitni aniqlashga xizmat qiladigan falsafiy kategoriya hisoblanadi[19]. Ijtimoiy muhitning asosiy elementlaridan biri bu odamlardir. Odamlar bir-birining hayotiga va xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar, jamoa va guruhlar ham ijtimoiy muhitning bir qismi bo‘lishi va hayotimizga ta’sir qilishi mumkin. Ijtimoiy muhitning yana bir asosiy elementi institutlardir. Bular hukumat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa muassasalardir.

Ijtimoiy muhit qismlaridan eng muhimi oila muhitidir. Birinchi muhit – bu jamiyat ichida o‘zaro iqtisodiy, huquqiy, reproduktiv va ma’naviy munosabatlarni

[18] Убийко В.И. Концептосфера человека в семантическом пространстве языка // Вестник Оренбургского государственного университета. 2004. № 5. – С. 37-40.

[19] Каххарова М. Маънавий идеал ва жамият ижтимоий-маънавий муҳити // Oriental Journal of Social Sciences Vol.1 (1), pp.30-36, 22 May, 2021. http://www.supportscience.uz/index.php/ojss © 2021 Support Science LLC DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-01-05

shakllantiradigan ota-onalar va bolalardan iborat oilaviy muhit. Oila – bu jamiyat ichidagi muhit bo‘lib, o‘z hududi va qonun ustuvorligiga ega bo‘ladi. Ko‘pgina an’analar, urf-odatlar, ma’naviy-axloqiy me’yorlar oilaviy muhitda sayqallanadi va taxtga vorislik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq takomillashtiriladi. Azaldan millatimiz siyratida halollik, rostgo‘ylik, oliyjanoblik, sharm-u hayo va mehribonlik kabi qimmatli insoniy fazilatlar birinchi navbatda oilada shakllangan.

Ikkinchi muhit – bu shaxsning kelajagini belgilovchi omil bo‘lgan ta’lim muhiti. Inson ta’lim muhitida shaxs sifatida o‘sadi, kamolga yetadi, o‘zligini taniydi va rivojlanadi. Agar ularning ma’naviy-axloqiy shakllanishi uchun poydevor oilada qo‘yilgan bo‘lsa, unda bu funksiya ta’lim muhitida yanada rivojlanadi. Shaxsning axloqi uning tasavvuri va xulq-atvori bilan uyg‘undir.

Uchinchi muhit – bu bizning davrimizda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ish joyidagi muhit. Ish muhiti – bu o‘zaro munosabat, hurmat, samaradorlik, jamoaning obro‘si uchun raqobat, mas’uliyat hissi, qiziqish, talabchanlik, g‘amxo‘rlik va rag‘batlantirish namoyon bo‘ladigan joy. Mehnat muhiti – bu insonning ma’naviy-axloqiy xarakteri o‘zini to‘liq namoyon qila oladigan joy.

Mahalla muhiti shaxslar uchun axloqiy faoliyatning to‘rtinchi va muhim makonidir, chunki u ilgari aytib o‘tilgan uchta muhitni uyg‘unlashtiradi va Sharq axloqi hamda tushunchalari haqiqatga aylanishi uchun sharoit yaratadi. Ushbu muhitlarning umumiyligi bilan shakllangan mikro muhit jamiyat faoliyati uchun ajralmas hisoblanadi. Muloqotni shakllantiruvchi madaniy, ijtimoiy va shaxslararo omillarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy muhit tilshunoslikning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi[20]. Ijtimoiy muhitni tahlil qilish orqali tilshunoslik tilning ijtimoiy munosabatlarni yaratish va saqlash, o‘ziga xoslik va madaniyatni ifodalash uchun qanday ishlatilishini tushunish mumkin.

Ta’kidlash kerakki, zamonaviy tilshunoslik fanining rivojla7nishi uni tobora ko‘proq raqamli va kompyuter texnologiyalari bilan uzviy bog‘lab qo‘ymoqda. Ijtimoiy muhitning tilga ta’sirini o‘rganishda an’anaviy sotsiolingvistik yondashuvlar (kuzatuv, so‘rovnoma, intervyu, matn tahlili) bilan bir qatorda, bugungi kunda kompyuter sotsiolingvistikasi (computational sociolinguistics) yo‘nalishi jadal rivojlanmoqda. Bu yo‘nalish ijtimoiy muhitning – oila, ta’lim, ish joyi, mahalla kabi muhit turlarining tilga ta’sirini katta hajmdagi raqamli ma’lumotlar asosida avtomatlashtirilgan usullar yordamida tadqiq etadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Konseptosfera mentalitet va dunyoning kognitiv manzarasi (DKM) bilan bog‘liq hodisa: raqamli modellashtirish imkoniyatlari”** deb nomlanadi. XX-XXI asrlar tilshunoslik o‘rganish predmetining o‘ziga xos jihatlariga yo‘naltirilgan lingvistik va lingvokulturologik yondashuvlarning rivojlanishiga guvoh bo‘ldi. Ushbu sohalar metodologiya va terminologiya nuqtayi nazaridan o‘zaro bog‘liqdir. Ushbu murakkab tadqiqot sohasi doirasida dunyoni lingvistik tushunish bilan birgalikda dunyoni kognitiv idrok etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan konseptual sohani har tomonlama tahlil qilish amalga oshiriladi.

[20] Каххарова М. Маънавий идеал ва жамият ижтимоий-маънавий муҳити // Oriental Journal of Social Sciences Vol.1 (1), pp.30-36, 22 May, 2021. http://www.supportscience.uz/index.php/ojss © 2021 Support Science LLC DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-01-05

“Mentalitet” atamasi kognitiv tilshunoslikda faol qo‘llanib kelmoqda. Shunday bo‘lsa-da, bu atamaning mazmuni hali ham yetarlicha ochib berilmagan. Ushbu tushunchaning ko‘p hamda ziddiyatli ta’riflari mavjud. “Mentalitet” so‘zi 90-yillarning o‘rtalarida lug‘at va ma’lumotnomalarda paydo bo‘la boshladi. Mentalitet deganda, tafakkur, psixologik fikrlash, fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlari, xarakteri va boshqalar tushuniladi.

Kognitiv tilshunoslikda “mentalitet” va “konseptosfera” tushunchalarini farqlash muhimdir. Mentalitet haqiqatni idrok etish va tushunishning o‘ziga xos usuli. Mentalitet deganda shaxs, ijtimoiy yoki etnik guruhga xos bo‘lgan kognitiv stereotiplar to‘plami tushuniladi. Shaxsning mentalitetiga milliy yoki guruh tajribasi, shaxsiy ta’lim, madaniyat, shuningdek, voqelik hodisalarini idrok etish va talqin qilish kabi omillar ta’sir qiladi. Bu shaxsning voqelikni qanday qabul qilishi va tushunishini shakllantiradigan shaxsiy aqliy mexanizmlar.

Guruh mentaliteti deganda voqelikni idrok etish va tushunishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan, ijtimoiy, yosh, kasbiy, jins yoki boshqa omillar ta’sirida bo‘lgan shaxslar jamoasi tushuniladi.

Milliy mentalitet deganda, kognitiv stereotiplar to‘plamiga asoslangan millat tomonidan voqelikni idrok etish va tushunishning o‘ziga xos usuli tushuniladi. Masalan, amerikalik boy odamni ko‘rganda, u “boy, shuning uchun aqlli” deb o‘ylashi mumkin, rus esa “boy, shuning uchun o‘g‘ri” deb tafakkur qiladi, o‘zbek esa “kattakonning bolasi-da, boy” deb o‘ylashi mumkin. Haqiqatni idrok etish va tushunish o‘xshash bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, ular bir xil emas. Idrok tushunishning birinchi bosqichi va eng muhim shartidir. Turli xalqlarning mentaliteti odamlarni bir xil mavzuni boshqacha qabul qilishga undaydi. Milliy mentalitet ko‘pincha inson idrok organlariga ta’sir qiladi, ularni bir narsani ko‘rishga va xabardor bo‘lishga majbur qilsa, boshqasini sezmaslikka “undaydi”. Masalan, Rossiya mentaliteti Osiyo ayollarining itoatkorligini ta’kidlab, o‘z ayollarining chaqqon, uddaburonligini sezmaydilar, osiyoliklar esa rus ayollarining qat’iy va hatto tajovuzkorliklarini qayd etib, o‘zlarining itoatkor va passivliklarini sezmaydilar.

“Dunyo manzarasi” tushunchasi ostida eng umumiy shaklda jamoat ongida shakllangan voqelik haqidagi tartiblangan bilimlar to‘plami tushuniladi. Dunyo manzarasini bevosita va bilvosita farqlash juda muhimdir. Dunyoning bevosita tasviri – atrofdagi voqelikni bevosita idrok etish natijasida shakllangan vizual tasvirdir. Ushbu idrok hissiy tajriba orqali ham, insonga xos bo‘lgan mavhum fikrlash orqali ham sodir bo‘ladi. Ammo har qanday holatda ham dunyoning bu manzarasi ongda “vositachilar”ga ega emas va dunyoni bevosita idrok etish va uni tushunish natijasida shakllanadi.

Mentalitet va konseptosferaning o‘zaro munosabatini kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan o‘rganishda madaniyatlararo semantik farqlarni avtomatlashtirilgan aniqlash usullari qo‘llaniladi. Jumladan, BabelNet – 500 dan ortiq tilni qamrab oluvchi ko‘p tilli leksik-semantik tarmoq turli millatlar konseptosferalarini qiyosiy o‘rganish uchun raqamli platforma sifatida xizmat

qiladi[21]. O‘zbek va nemis mentalitetidagi farqlarni, masalan, “oila” yoki “ish joyi” konseptlarining ushbu tarmoqdagi semantik munosabatlarini taqqoslash orqali miqdoriy jihatdan aniqlash mumkin.

Dunyoning kognitiv manzarasini raqamli shaklda modellashtirish uchun ontologiyalar (ontologies) va bilim graflari (knowledge graphs) dan foydalaniladi. Google Knowledge Graph, DBpedia, Wikidata kabi loyihalar turli millatlarning kognitiv manzarasini ma’lumotlar bazasi shaklida ifodalaydi. ConceptNet loyihasi[22] esa 300 000 dan ortiq konsept va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘z ichiga olgan ko‘p tilli bilim tarmog‘i bo‘lib, mentalitetga xos kognitiv stereotiplarni raqamli shaklda aks ettirish imkonini beradi.

Bobning uchinchi fasli **“Tilning semantik maydoni va dunyoning lingvistik manzarasi (DLM)da konseptosferaning o‘rni (korpus va vektorli semantika asosida tahlil)”** deb nomlanib, unda semantik maydon nazariyasi hamda uning DLMdagi ahamiyati tahlil qilingan. “Dunyoning lisoniy manzarasi” hamda “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasining nazariy muammolari dunyo tilshunosligida XIX asrning so‘nggi choragidan beri muhokama qilib kelinmoqda. Har bir lisoniy madaniyat dunyoning o‘ziga xos lisoniy manzarasiga ega. Insonning tilda mustahkamlangan dunyoni o‘ziga xos idrok etishi shunday namoyon bo‘ladi. Ong va dunyo manzaralarining ijtimoiy ko‘rinishlarining mavjudligi inson ongi tashqi voqelikni ham, ichki dunyoni ham aks ettirishini ko‘rsatadi. Dunyo lisoniy manzarasining shakllanishida tilning roli nihoyatda katta. Insonning aqliy jarayonlari vositasi bo‘lgan til shaxsning shaxsiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi, bu ham shaxslarning, ham butun jamiyatning amaliy va nazariy harakatlarining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Insoniyat jamiyatining mavjud bo‘lishining zaruriy sharti atrofdagi tabiatning rivojlanishi va shu bilan inson va jamiyatning hayotiy faoliyatini ta’minlashdir. Ikki xil nuqtayi nazarni ajratish mumkin: konseptual va lingvistik manzaralar. Konseptual dunyoqarash nafaqat voqelikni mental aks ettirish orqali olingan bilimlarni, balki hissiy tushunish va idrokni ham o‘z ichiga oladi. Dunyoning lingvistik manzarasi – bu lingvistik vositalar bilan mustahkamlangan tashqi va ichki dunyo haqidagi barcha ma’lumotlar.

Dunyoni ikki xil prizma, ya’ni konseptual va lingvistik manzaralar orqali ko‘rish mumkin. Konseptual manzara asosan tushunchalarda keltirilgan ma’lumotlardan iborat bo‘lsa, lingvistik manzara ma’lum tillardagi so‘zlar va iboralar orqali ifodalangan bilimlarni o‘z ichiga oladi. Lingvistik manzara ikkita asosiy jihat: qamrab olgan bilimlar tizimi va uning til tizimiga qo‘shilishi bilan tavsiflanadi.

Til odamlarning atrofdagi dunyo haqida bilim olishlari uchun eng muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Verbal ifoda orqali odamlar o‘zlarining konseptual

[21] Navigli R., Ponzetto S.P. BabelNet: The Automatic Construction, Evaluation and Application of a Wide-Coverage Multilingual Semantic Network // Artificial Intelligence. – 2012. – Vol. 193. – P. 217-250. DOI: 10.1016/j.artint.2012.07.001

[22] Speer R., Chin J., Havasi C. ConceptNet 5.5: An Open Multilingual Graph of General Knowledge // Proceedings of AAAI. – 2017. – P. 4444-4451. URL: https://conceptnet.io; Vrandečić D., Krötzsch M. Wikidata: A Free Collaborative Knowledgebase // Communications of the ACM. – 2014. – Vol. 57, № 10. – P. 78-85.

tushunchalari natijalarini yetkazadilar, ular o‘zaro ta’sir qiladigan obyektiv haqiqatni aks ettiradilar. Lingvistik shaklda taqdim etilgan ushbu bilimlarning umumiyligi “lingvistik oraliq dunyo”, “dunyoning lingvistik vakili”, “dunyoning lingvistik modeli” yoki, odatda, “dunyoning lingvistik manzarasi” kabi turli xil tushunchalar bilan belgilanadi. Tilning semantik maydoni – bu til belgilari yordamida ifoda etilgan konseptosferaning bir qismi, ma’lum bir tilning til belgilari orqali uzatiladigan ma’nolar to‘plami. Xalq konseptosferasining muhim qismi tilining semantik maydonida tasvirlangan. Bu esa kognitiv tilshunoslikning predmeti hisoblanadi. Tilning semantik maydonini kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan o‘rganishda vektorli semantik maydonlar (vector space models of semantics) nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tilning semantik maydoni ko‘p o‘lchovli vektorli fazoda modellashtirilib, har bir so‘z ushbu fazodagi nuqta sifatida ifodalanadi. Semantik jihatdan yaqin so‘zlar ushbu fazoda bir-biriga yaqin joylashadi, uzoq so‘zlar esa bir-biridan uzoqlashadi. Masalan, “oila” semantik maydonidagi “mehr”, “sadoqat”, “farzand” so‘zlari vektoral jihatdan yaqin, “raqobat”, “savdo” so‘zlari esa uzoq joylashadi.

Dunyoning lingvistik manzarasini korpus yordamida o‘rganishda diaxronik korpus tahlili (diachronic corpus analysis) usuli konseptosferadagi tarixiy o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Google Books Ngram Viewer kabi vositalar yordamida muayyan konseptni ifodalovchi so‘zlarning yuz yillar davomidagi chastotaviy o‘zgarishlarini kuzatish mumkin[23]. Bu usul, masalan, nemis tilidagi “Bildung” konseptining XX-XXI asrlardagi semantik evolyutsiyasini miqdoriy asosda o‘rganishga imkon beradi.

Tahlillardan anglashiladiki, konseptosferaning shaklanishi tilning semantik maydoni hamda dunyoning lisoniy manzarasi bilan bevosita aloqadordir. Demak, dunyoning lingvistik manzarasi ma’lum semantik maydonlarga bo‘linadi. Til madaniy hodisa ekanligi bilan bir qatorda, millatning madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi, milliylik xususiyatini namoyon etuvchi maxsus birliklarga, ya’ni o‘z konseptosferasiga egadir.

III bob “**Konseptosferaning lingvokulturologik va kompyuter lingvistik tahlili”** deb nomlanib, unda o‘zbek va nemis millatida oila, ta’lim, ish joyi, mahalla muhiti bilan bog‘liq konseptosferalar shakllanishi masalasi tadqiq qilingan. Bobning birinchi bo‘limi **“O‘zbek millatida oila, ta’lim, ish joyi, mahalla muhiti bilan bog‘liq konseptosferalar shakllanishi”** deb nomlanadi. Millat madaniyati, an’analari, urf-odatlari, albatta, tilga ta’sir ko‘rsatadi. Chunki til ijtimoiy hodisadir. Til va jamiyat munosabati muhim masalalardan sanaladi. Bir tilda konseptosferalar shakllanishi bevosita o‘sha millatning ijtimoiy muhiti bilan bog‘liqdir. Konseptosfera milliy va madaniy o‘ziga xoslik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan hodisadir, chunki u ma’lum bir millatning o‘ziga xos qarashlarini to‘plash, saqlash va uzatishga xizmat qiladi. Konseptosfera o‘ziga xos milliy madaniyatni va uning fikrlash tarzini belgilaydigan va aks ettiradigan tushunchalar, tasvirlar va qadriyatlar to‘plamini o‘z ichiga oladi.

[23] Michel J.B. et al. Quantitative Analysis of Culture Using Millions of Digitized Books // Science. – 2011. – Vol. 331, № 6014. – P. 176-182. DOI: 10.1126/science.1199644; Hamilton W.L. et al. Diachronic Word Embeddings Reveal Statistical Laws of Semantic Change // Proceedings of ACL. – 2016. – P. 1489-1501.

Konseptosfera odamlar yashaydigan va ishlaydigan ijtimoiy muhit ta’siri ostida shakllanadi. O‘zbek konseptosferasini shakllantirishda ijtimoiy muhit muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek turmush tarzi, mentaliteti, qadriyatlari ko‘plab omillar, jumladan, odamlar yashayotgan va mehnat qilayotgan ijtimoiy muhit bilan belgilanadi.

Ijtimoiy muhit insonlarning bir-biri va atrofdagi dunyo bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan jamiyatni o‘rab turgan muhit. Ijtimoiy muhit madaniyat, ta’lim, siyosat, iqtisod, san’at, fan va texnika kabi odamlarning xulq-atvori va tafakkurini belgilaydigan jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy muhitda odamlarning o‘zaro ta’siri ham ijobiy, ham salbiy bo‘lishi mumkin va umuman jamiyat rivojlanishiga ta’sir qiladi. Ijtimoiy muhitni anglash odamlar va jamiyatni yaxshiroq tushunishga, shuningdek, jamiyatda odamlar hayotini yaxshilash strategiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy muhit inson ta’lim olgan, yashaydigan maskanni, shuningdek, ular bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan odamlar va muassasalarni o‘z ichiga oladi. O‘zaro ta’sir shaxsan yoki ommaviy axborot vositalari orqali, hatto anonim yoki bir tomonlama tarzda amalga oshirilishi mumkin, bu ijtimoiy maqomda tenglikni anglatmaydi. Ijtimoiy muhit ijtimoiy sinf yoki ijtimoiy jamoa tushunchasidan ko‘ra kengroq tushunchadir.

Har qaysi millat madaniyati o‘ziga xos bo‘lib, bir-biriga o‘xshamaydi. Bu individuallik o‘sha millat tilining lingvokulturologik birliklarining funksional, leksik, semantik, grammatik xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, o‘zbek millati vakili lisonida mavjud bo‘lgan konseptosfera nemis vakili lisoniy ongida lakuna bo‘lishi ham mumkin.

O‘zbek millatida oila, ta’lim, ish joyi, mahalla muhiti bilan bog‘liq konseptosferalar shakllanishi xalqning mentaliteti, urf-odat va an’analari bilan bog‘liqdir.

“Oila” konsepti uchta mikrokonseptni o‘z ichiga oladi:

1)”bolalar” mikrokonsepti;

2) “ota-onalar” mikrokonsepti;

3) qarindoshlik munosabatlar mikrokonsepti.

“Oila” konsepti ko‘plab freymlardan iborat bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardir: oila boshlig‘i, oila a’zolari, uy, uy xo‘jaligi, oila nizomi, oilaviy rollar, oilaviy majburiyatlar va oilaviy munosabatlar[24].

